

# **Talabalarimiz “TECHNOWAYS” marafoni g’oliblari deb topildi!**

Joriy yilning 6-oktyabr kuni O’zbekiston Respublikasi Innovasion Rivojlanish Vazirligi huzuridagi Innovasion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-amaliy markazi tomonidan o’tkazilayotgan “TECHNOWAYS” texnologik rivojlanish marafonining yopilish marosimi bo’lib o’tdi.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti tomonidan marafonda 4 ta jamoa qatnashdi. Musobaqa natijalariga ko’ra ulardan ikkitasi g’olib deb topildi. Xususan, “**Nova robotics**” jamoasi yaratgan yordamchi vazifasini bajaruvchi roboti **20 000 000 so’m** mukofot puliga, Enor-3 ixcham, tezkor va tejamkor elektromobilini ishlab chiqqan “**Neuron engineering**” jamoasi-**15 000 000 so’m** mukofot puliga sazovor bo’lishdi.

**G’oliblarimizni chin qalbdan tabriklaymiz va ularga ulkan muvaffaqiyatlar va zafarlar tilaymiz!**

**Talabalarimiz – bizning kelajagimiz! Bizning faxrimiz!**